

9-30-2020

THE ROLE OF HIPPOCRATES IN THE HISTORY OF WORLD MEDICINE

Obid Raximovich Nazarov
Gulistan State University, o.nazarov@mail.ru

Rustam Abduvaid o'g'li Ne'matov
Gulistan State University

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/gulduvestnik>



Part of the [Higher Education Administration Commons](#)

Recommended Citation

Nazarov, Obid Raximovich and Ne'matov, Rustam Abduvaid o'g'li (2020) "THE ROLE OF HIPPOCRATES IN THE HISTORY OF WORLD MEDICINE," *Bulletin of Gulistan State University*. Vol. 2020 : Iss. 3 , Article 17. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/gulduvestnik/vol2020/iss3/17>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Bulletin of Gulistan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact sh.erkinov@edu.uz.

УДК 1(09).297.16

THE ROLE OF HIPPOCRATES IN THE HISTORY OF WORLD MEDICINE

GIPOKRATNING DUNYO TIBBIYOTI ILMI TARIXIDA TUTGAN O'RNI

РОЛЬ ГИППОКРАТА В ИСТОРИИ МИРОВОЙ МЕДИЦИНЫ

Nazarov Obid Raximovich, Ne'matov Rustam Abduvaid o'g'li

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, IV-mavze

E-mail: o.nazarov@mail.ru

Abstract. It is known from history that many works and experiments were carried out by representatives of the medical sphere in many countries of Europe in antiquity, including Greece, in the development of World medicine. Therefore, we are inclined to say that no one except Galen, another Greek physician who lived several years after Hippocrates, had such a great influence on the footing of ancient European Medicine.

Hippocrates received the first medical knowledge from his father, a physician - male. His father's colleagues on the island also taught Hippocrates a lot. He then traveled to different countries to further enhance and perfect his knowledge and became familiar with the practice of local physicians.

Historical data on the personal life of Hippocrates are very few. There are stories and legends about his biography, but they are manifested mainly in the genitive case. Just like Homer, the Hippocratic name is not only the original name of the great judge, but it is also a diminutive name from different names and nicknames. based on recent years of research, there are opinions that most of the seventy works, which are considered belonging to the Hippocratic pen, belong to the son - in-law of Fessal and Drakon or, the groom-to-Polib. The reason is that Galen Hippocrates, a representative of the major medical field, recognized his works as 11 pieces, Galler 18 pieces, while Kovner claims that only 8 works in the Hippocratic code belong to the scientific work of Hippocrates, and the rest to other authors who have been linked to it [1].

Brochures from the Hippocratic pen - "about the winds", "about the air, water and places", "bending", "about the diet in severe diseases", books - "epidemic", "aphorisms" (the first four chapters), as well as surgical resources - "about the joints" and "about fractures". These works are unique in the Hippocratic code.

In addition, among the main scientific works of Hippocrates, it is necessary to include the following works in philosophical, moral and ethnic directions: "oath", "law", "about the judge", "about Good Conduct", "upbringing". Through these works, Hippocrates can be regarded as watering scientific medicine with humanitarian ideas and defining the basic principles of medical etiquette.

Because in the pre-Hippocrates times, people used to imagine that diseases would come either by "evil spirits", or by means of magic. Thanks to this, Hippocrates' bias towards finding out the causes of the disease was completely new for its period. That is, it is necessary to admit that the diseases are not sent to people by goddesses or other supernatural forces, but by the fact that they are the first to scientifically substantiate the occurrence of completely natural causes.

Keywords: Hippocrates, Hippocrates oath, Fessal, Drakon, Polib, Kovner, defeat, about joints, about law, Hakeem, about good manners, upbringing.

Аннотация. Из истории известно, что в древние времена в развитии мировой медицинской науки представителями медицинской сферы осуществлялось множество работ, экспериментов во многих областях Европы, в том числе в Греции. Поэтому мы вправе сказать, что никто, кроме другого греческого правителя - Галена, жившего несколько лет позже Гиппократу, не оказал столь большого влияния на становление древнеевропейской медицины.

Первые медицинские знания Гиппократ получил от своего отца, правителя - мужественности. Коллеги отца по острову тоже многому научили Гиппократу. Затем он совершил поездку в разные страны для дальнейшего повышения и совершенствования своих знаний и ознакомился с практикой местных властей.

Исторические сведения о личной жизни Гиппократу крайне скудны. Существуют рассказы и легенды о его биографии, но они в основном проявляются в характере легенды. Как и Гомер, имя Гиппократ не является оригинальным именем великого правителя, а является собирательным именем от разных имен и прозвищ. исходя из научных фактов последних лет, существует мнение, что большая часть семидесяти произведений, которые можно считать принадлежащими Гиппократу, принадлежат

либо его сыновьям Фессалию и дракону, либо его зятю - Полибу. Причина в том, что Гален, представляющий большую медицинскую сферу, признает произведения самого Гиппократ как 11, так и 18, в то время как Ковнер утверждает, что только 8 работ Гиппократ относятся к научной работе Гиппократ, а остальные-к другим авторам, с которыми он был связан [1].

Брошюры Гиппократ - "о Ветрах", "о погоде, воде и местах", "изгиб", "О диете при тяжелых заболеваниях", книги - "Эпидемия", "афоризмы", (первые четыре главы), а также хирургические источники - "о суставах" и "о переломах". Эти произведения являются уникальными в Кодексе Гиппократ.

Кроме того, к числу основных научных работ Гиппократ следует добавить следующие произведения философского, нравственно - воспитательного и этнического направления: "Клятва", "закон", "о правителе", "о добродетели", "воспитание". Благодаря этим трудам можно считать, что Гиппократ поливал научную медицину гуманистическими идеями и определял основные принципы медицинского этикета.

Потому что еще до Гиппократ люди представляли, что болезни происходят через "злых духов" или, магию. Благодаря этому подход Гиппократ к выявлению причин заболевания был абсолютно новшеством для своего времени. То есть, надо признать, что первые попытки научно обосновать, что болезни не посылают богам или другим сверхъестественным силам людей, а они возникают по вполне естественным причинам, уже начались.

Ключевые слова: Гиппократ, клятва Гиппократ, Фессал, Дракон, Полиб, Ковнер, изгиб, о суставах, закон, судья, о добродетели, воспитание

Kirish. Dunyo tibbiyoti ilmi taraqqiyoti rivojida antik davrda Yevropaning ko'plab o'lkalarida, jumladan, Yunonistonda tibbiyot sohasi vakillari tomonidan ko'plab asarlar, tajribalar amalga oshirilganligi tarixdan ma'lum. Shu bois biz Gippokratdan bir necha yillar keyinroq yashagan boshqa bir yunon hakimi - Galendan tashqari hech kim qadimgi Yevropa tibbiyotining oyoqqa turishiga bunchalik katta ta'sir ko'rsatgan emas deyishga haqlimiz.

Gippokrat dastlabki tibbiy bilimlarni o'z otasidan, hakim - Gerkalikdan olgan. Otasining oroldagi hamkasblari ham Gippokratga ko'p narsani o'rgatishgan. Keyinchalik esa, o'z bilimlarini yanada oshirish va mukammallashtirish uchun turli mamlakatlarga safarlar qilgan va mahalliy hakimlarning amaliyoti bilan tanishib chiqqan.

Gippokratning shaxsiy hayoti haqida tarixiy ma'lumotlar juda kam. Uning tarjimaiy holiga oid hikoya va rivoyatlar mavjud bo'lib, lekin ular asosan afsona xususiyatida namoyon bo'ladi. Xuddi Gomer kabi Gippokrat ismi ham buyuk hakimning asl ismi bo'lmay balki, turli ism va taxalluslardan yig'ma nom ekan. Yaqin yillardagi ilmiy faktlarga asoslanadigan bo'lsak, Gippokrat qalamiga mansub deb qaraladigan yetmishga yaqin asarlarning aksariyati, uning o'g'illari Fessal va Drakon yoki, kuyovi - Polibga tegishli degan fikrlar mavjud. Sababi yirik tibbiyot sohasi vakili Galen Gippokratning o'zi yozgan asarlarini 11 ta, Galen 18 ta deb e'tirof etsa, Kovner esa Gippokrat kodeksidagi faqat 8 ta asar Gippokratning ilmiy ishi, qolganlari esa unga bog'lab chop etilgan boshqa mualliflarga tegishli deb ta'kidlaydi [1].

Gippokrat qalamiga mansub risolalar - "Shamollar haqida", "Havo, suvlar va joylar haqida", "Egish", "Og'ir xastaliklarda parhez haqida", kitoblar - "Epidemiya", "Aforizmlar", (dastlabki to'rt bobi), hamda, jarrohlikka oid manbalar - "Bo'g'imlar haqida" va "Sinishlar haqida" asarlaridir. Mazkur asarlar Gippokrat kodeksning noyoblari hisoblanadi.

Bundan tashqari Gippokratning asosiy ilmiy ishlar qatoriga yana falsafiy, axloqiy - tarbiyaviy va etnik yo'nalishlardagi quyidagi asarlarni qo'shish zarur: "Qasamyod", "Qonun", "Hakim haqida", "Yaxshi xulq atvor haqida", "Tarbiya". Bu asarlar orqali Gippokrat ilmiy tibbiyotni insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orib, tibbiyot etiketining asosiy tamoyillarini belgilab bergan deb hisoblash mumkin.

Chunki Gippokratgacha bo'lgan davrlarda odamlar kasalliklarni "yovuz ruhlar" yoki, sehr - jodular orqali keladi deb tasavvur qilishardi. Shu tufayli Gippokratning kasallik sabablarini aniqlashga nisbatan yondoshuvi o'z davri uchun mutlaqo yangilik bo'lgan. Ya'ni u, kasalliklarni odamlarga ma'budlar yoki boshqa g'ayritabiiy kuchlar yuborishmasligini balki, ular butunlay tabiiy sabablarga yuzaga kelishini ilmiy asoslashga birinchilardan bo'lib urinish boshlanganligini e'tirof etish zarur.

Tadqiqot obekti va qo'llaniladigan metodlar

Gippokratning eng buyuk hizmatlari shundan iboratki, u tibbiyotni mavhum tushunchalarga asoslangan empirizmdan ajratib ko'rsatib, tib ilmini haqiqatga zid bo'lgan uydirma falsafiy nazariyalardan tozalaganini ko'rsatib o'tishi zarur. Tibbiyot va falsafa fanlariga ikki bir-biriga uzviy bog'liq sohalar sifatida yondoshuvchi Gippokrat, ularning ikkalasini ham ma'lum chegaralar belgilagan holatda, ammo mohirona uyg'unlik bilan tadqiq va tahlil eta olgan. Shu bois, barcha ilmiy va falsafiy asarlarida Gippokratning xulosalar chiqarish va kuzatuvchanlikning yorqin na'munalarini ko'rish mumkin. Uning mantiqiy fikrlari shu darajada mukammal xulosalanadiki, barcha keltirilgan mulohazalar uchun qat'iy tekshirilgan dalillar va isbotlar ilova qilib borilgan. Eng asosiysi Gippokratning tajriba va kuzatuvlarga asoslangan holatdagi, kasallikni kechishi, bosqichlari va davo usullarining samaradorligi bo'yicha erishgan yutuqlari uning o'z zamonasidayoq katta obro' va shuhratga erishishiga sabab bo'lgan. Gippokratning davomchilari, uning ishlarini va ilmiy faoliyatini davom ettiruvchi Kos maktabini tashkil qilishgan va bu tib ilmi maktabi uzoq yillar davomida yirik tibbiyot dorilfununi sifatida faoliyat yuritgan. Aynan o'sha Kos tibbiyot maktabining ilmiy faoliyati, hozirgi zamon tibbiyotining yo'nalishini belgilab bergan degan fikrlar ham mavjudir. Gippokrat tibbiyotga oid asarlari kasalliklarning tashqi ta'sirlar – atmosfera, fasl, shamol, suv, va ularning natijasi – ko'rsatilgan ta'sirlar oqibatida odam tanasidagi fiziologik o'zgarishlarni kuzatishlarning mufassal bayonlarini keltiradi. Gippokrat o'z asarlarida turli mamlakatlarning iqlimiy sharoitlari haqida ham ma'lumotlar keltirilib, mazkur mamlakat, orol yoki muayyan joyning meteorolgik shart – sharoitlaridan kelib chiqib, kasalliklarning qanday rivojlanishi mumkinligi haqida fikr yuritgan. Shuningdek Gippokrat tibbiyotga oid asarlarida kasalliklarni sabablariga ko'ra ikki toifaga tasniflaydi: Iqlim, tuproq, va irsiy omillar tufayli paydo bo'ladigan «Umumiy» kasalliklar hamda, odamning yoshi, ovqatlanishi, yashash va mehnat sharoitlaridan kelib chiquvchi «Shahsiy» sabablar. Mazkur omillarning odam tanasiga me'yoriy ta'siri, undagi suyuqliklarning to'g'ri taqsimlanishi va harakati jarayonlarini belgilaydi va bu uning uchun sog'lomlik hisoblanadi. Shuningdek Gippokrat o'z asarlarida voqe'likning mohiyatini anglashga bo'lgan chanqoq intilishi diqqatga sazovordir. Sababi Gippokratning fikricha, hakim eng avvalo bemor ahvoliga teran nigoh bilan nazar tashlaydi. Tashxis va davolashning barcha natijalarini muntazam qayd qilib boradi. Gippokratning noyob asarlaridan biri xisoblangan va etti jilddan iborat «Epidemiyalar» asarida hakim, shundoqqina bemor huzuridan yozib borilgan qaydlarni mufassal sharhlari va ilovalari bilan bayon qilgan. Mazkur asarda, bemorni davolash jarayonida kuzatilgan o'zgarishlar, davo vositalarining ta'sirlari haqidagi tajribalar tizimlashmagan ma'lumotlar shaklida keltiriladi. Shuningdek bu asarda, matn mazmuniga muofiq kelmaydigan, butunlay boshqa mulohazalar ham uchraydiki, huddi muallif aqliga kelib qolgan fikr va mulohazalarni yo'l – yo'lakay va darhol yozib olgandek taasurot uyg'otadi. Masalan, shunday sinkov mulohazalardan biri, bemorni qanday ko'rikdan o'tkazish haqida hakim bunday yozadi: «Bemor tanasini ko'rikdan o'tkazish – yaxlit jarayon: u bilim, tinglay olish, hid bilish, sezgirlik, til bilish va mulohaza qila olish qobiliyatlarini talab qiladi.»[2] Shuningdek Gippokratning tibbiyot vakillariga qarata aytgan maslaxtlari xam e'tiborga loyiqdir. Jumladan, xar qanday hakim, tashxis qo'yish va davolashning katta ko'lamiga, bemorning nafaqat joriy kasalligini, balki, undan avvalgi yuz bergan betobliklarini va ulardan qolgan asortarlarni ham hisobga olgan holatda yondashish zarurligini, chunki bemor ham boshqa barcha odamlardek oddiy odam ekanligini, uni anglash uchun boshqalarni ham anglash lozimligini unutmaslik kerak deb ta'kidlaydi. Uning uchun hattoki bemorning sukuti ham ko'rsatma bo'lib hizmat qilishi kerak deb hisoblaydi. U kasalliklarni doimiy kuzatib borib, uni aniq bosqichlarga ajratish kerakligini ham ta'kidlaydi. Ayniqsa, tutqanoq kelishi davri, istimali, o'tkirlashish (yoki keskinlashish) davrlarini hamda bemorning tushkunlikka tushish holatini ajratadi, shuningdek, uning ta'limotiga ko'ra, organizm birikmagan, hazm bo'lmagan suyuqliklardan qutulib, kasallikning «sinishi» paytini mavjudligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari Gippokrat qalamiga mansub «Bo'g'imlar haqida» va «Sinishlar haqida» asarlarida xam, jarrohlik amaliyotlari va operatsiyalar haqida tafsilotlar bilan, mukamal bayon qilingan.



1-rasm. Gippokrat qasamyodi.

Xullas Gippokrat qo'lyozmalaridan shu narsa ma'lum bo'ladiki, jarrohlik qadim davrlardayoq yuqori sifat va darajada bajarilgan; bizning davrimiz tibbiyotida ham qo'llaniladigan turli jarrohlik asboblari hamda bog'lov vositalaridan foydalanilgan. «Og'ir hastaliklarda parhez haqida» asarida xam Gippokrat kasallik shakli – o'tkir, mavsumiy, jarrohlikka oidligiga qarab turlicha parhez usullarida ovqatlanish zarurligini uqtiradi va bu bilan hakam, ratsional dietologiyaga asos soladi. Shu orkali Gippokratni so'zsiz tibbiyot soxasida yuksalishga erishgan alloma deb hisoblashga xaqlimiz.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Gippokrat ishlarining e'tiborga molikligi shundan iboratki, u o'z asarlarida tibbiyot ilmida dastlabki hakimlar davolashi oldida turadigan vazifalarga e'tibor qaratib shunday yozadi: "Bemor tanasini ko'rikdan o'tkazish - yaxlit jarayon: u bilim, tinglay olish, hid bilish, sezgirlik, til bilish va mulohaza qila olish qobiliyatlarini talab qiladi." Ushbu matn davomida esa: "tashxis qo'yilishi lozim bo'lgan kasalliklarga taalluqli omillardan, odamlarning umumiy tabiati va har qanday odamning o'z tabiati, bemorning kasalligi, unga nima tegishli bo'lsa tegishlilardan, shunga binoanki, ulardan qaysi biridan bemorga engillik yoki qiyinchilik etishidan; bundan tashqari osmon hodisalarining umumiy va xususiy holatlaridan, har xil mamlakatlardan, odatlaridan, ovqatlanish tarzidan, hayot turidan, har bir bemorning yoshidan, va nutqidan, xulqi, sukuti, fikrlari, tushlari, uyqusi, uyqusizligi, tushlarining qanaqaligi va qachon ko'rishi, qichishishi, ko'z yoshlari, kasallikning tutilib - tutilib kechish, siydik, safro, qayt qilish xolatlarini e'tibordan chetda qoldirmaslik fikrlarini tibbiyot soxasi vakillariga uqtirib o'tadi. Shuningdek, kasalliklardagi o'zgarishlarga ham qarash kerak: qandaylaridan qaysilari yuz beryapti, o'limga olib boruvchilari, yoki, majruhlikka olib boruvchilari, keyin esa - terlashni, qaltirashni, sovuqqotish, yo'talish, chuchkirish, hiqichoq, nafas olish, esnash, kekirish, tovushli yoki sassiz el, qon chiqishi, gemorroylarni ham tekshirish zarurligini aytib o'tadi. Va barcha belgilardan kelib chiqib, hamda, ular nima orqali paydo bo'layotganini aniqlab, - ko'rik va tekshiruv olib borish kerakligini ta'kidlab o'tgan"[3].

Gippokratning tibbiyotga oid asarlarining axamiyatli tomoni shundaki, xar qanday hakim, tashxis qo'yish va davolashning katta ko'lamiga, bemorning nafaqat joriy kasalligini, balki, undan avvalgi yuz bergan betobliklarini va ulardan qolgan asoratlarni ham hisobga olgan holatda yondashishi zarurligini, chunki bemor ham boshqa barcha odamlardek oddiy odam ekanligini, uni anglash uchun boshqalarni ham anglash lozimligini unutmaslik kerak deb ta'kidlaydi. Uning uchun hattoki bemorning sukuti ham ko'rsatma bo'lib xizmat qilishi kerak deb hisoblaydi.

Bundan tashqari Gippokrat kasalliklarni doimiy kuzatib borib, uni aniq bosqichlarga ajratish kerakligini ham ta'kidlaydi. Ayniqsa, tutqanoq kelishi davri, isitmali, o'tkirlashish (yoki keskinlashish) davrlarini hamda bemorning tushkunlikka tushish holatini ajratadi, shuningdek, uning ta'limotiga ko'ra, organizm birikmagan, hazm bo'lmagan suyuqliklardan qutulib, kasallikning "sinishi" paytini mavjudligini ta'kidlab o'tadi.

Xulosa

Xulosa shundan iboratki, Gippokrat mantiqiy fikrlari shu darajada mukammal xisoblanadiki, barcha keltirilgan mulohazalar uchun qat'iy tekshirilgan dalillar va isbotlar ilova qilib borilgan. Gippokratning tajriba va kuzatuvlarga asoslangan holatdagi, kasallikni kechishi, xamda bosqichlari va davo usullarining samaradorligi bo'yicha erishgan yutuqlari uning o'z zamonasidayoq katta obro' va shuhratga erishishiga sabab bo'lgan. Gippokratning davomchilari, uning ishlarini va ilmiy faoliyatini davom ettiruvchi Kos maktabini tashkil qilishgan va bu tib ilmi maktabi uzoq yillar davomida yirik tibbiyot dorilfununi sifatida faoliyat yuritgan. Aynan o'sha Kos tibbiyot maktabining ilmiy faoliyati, hozirgi zamon tibbiyotining yo'nalishini belgilab bergan degan fikrlarini aytishni joiz deb hisoblash mumkin.

Xullas "Tibbiyot otasi" ning eng yorqin ilmiy kashfiyotlari quyidagilar hisoblanadi.

1. Inson temperamentining kashfiyotlari. Gippokrat bugungi kunda ma'lum bo'lgan temperament turlarini tasniflash haqida gapirib, har bir turga mos bo'lgan tashxis va davolashni alohida kasalliklarga moyilligini hisobga olgan holda tavsiflab berdi.

2. Kasallik bosqichlari nazariyasi. Nazariyaga ko'ra, Gippokrat kasallikning xavfli bosqichini - "inqiroz" ni aniqladi, shuningdek, "tanqidiy kunlar" ning xususiyatlari to'g'risida gapirdi.

3. Bemorlarni tekshirish usullari (auskultatsiya, perkussiya, palpatsiya). O'z davri oldidan shifokor, u ibtidoiy modelning texnikasini o'rgangan, ammo bu fanga hissa qo'shgan.

4. Jarrohlik aralashuvning xususiyatlari. Qadimgi faylasufning bilimlari va yangiliklari tufayli keyingi shifokorlar jarrohlik amaliyotida bandaj, niqob va shlyapalardan foydalanishni boshladilar. Gippokrat shuningdek operatsiyalarni o'tkazish qoidalarini (tegishli yorug'lik, asboblarning joylashuvi) kiritdi.

5. Dietetika tamoyillari bayoni. Shifokorning so'zlariga ko'ra, uning izdoshlari bemorlarga maxsus ovqat (parhez) kerakligini tushunishdi. Masalan, isitma bilan - asal, arpabodiyon urug'lari va xushbo'y moyli arpa pyuresi, revmatizm bilan - qaynatilgan baliq va lavlagi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Балалыкин Д. А., Щеглов А. П., Шок Н. П. Гален: врач и философ. — М.: Весть, 2014. — 416 с.
3. Гален, Клавдий. О назначении частей человеческого тела / Пер. С. П. Кондратьева, под ред. и с примеч. В. Н. Терновского, вступ. ст. В. Н. Терновского и Б. Д. Петрова. М.: Медицина. 1971. -555 с.
4. Ковнер, Савелий Григорьевич // Выпуск первый. Медицина Востока. Медицина в древней Греции до Гиппократа. — 1878.

References:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Balalikin D. A., Heglov A. P., Shok N. P. Galen: vrach i filosof. — M.: Vest, 2014. — 416 s.
3. Galen, Klavdiy. O naznachenii chastey chelovecheskogo tela / Per. S. P. Kondrateva, pod red. i s primech. V. N. Ternovskogo, vstup. st. V. N. Ternovskogo i B. D. Petrova. M.: Meditsina. 1971. 555 str.
4. Kovner, Saveliy Grigorevich // Vipusk perviy. Meditsina Vostoka. Meditsina v drevney Gretsii do Gippokrata. — 1878.

Mualliflar:

Nazarov Obid Raximovich - Guliston davlat universiteti Tarix kafedrasida dotsenti, tarix fanlari nomzodi.

Ne'matov Rustam Abduvaid o'g'li - Guliston davlat universiteti Tarix kafedrasida o'qituvchisi.